O'zbekistonda turizm va servis sohasida davlat- xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish istiqbollari.....	846
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tijorat banklarida operatsion risklarini baholash va boshqarish tizimini tashkil qilish	850
Jaxongir Rabbimov	
Tomorqa xo'jaliklari faoliyatini tahlil qilishda statistik modellar va metodlardan foydalanish yo'nalishlari.....	855
Turobov Sherzod Alisherovich	
Совершенствование порядка расчёта и взимания НДС в узбекистане: аналитический подход.....	860
Бисенбаев Шарьяр Куанишбай ули	
Mintaqaviy iqtisodiyotda inson kapitalini raqamli transformatsiyalash masalalari.....	864
Yusubboeva Dinora Quadrat qizi	
Iqlim o'zgarishlari va rekreatsiya turizmining kelajagi: muammolar va yechimlar	870
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Sirdaryo viloyatining turizm imkoniyatlari va o'ziga xos turizm resurslari.....	875
Tursunova Gulmira Rabbonovna	
Samarqand viloyatida investitsion-innovatsion faollikni oshirish holati va investitsiyalarning tarkibiy xususiyatlari.....	883
Bektemirov Abdumalik Bektemirovich, Axrorov Abbos Aslamjon o'g'li	
Global innovatsion indekslar va o'zbekiston: rivojlanish yo'nalishlari va bosqichlari	889
Bekmurodova Gavhar Adham qizi	
Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy qilishning ilmiy-nazariy asoslariga qarashlar	895
Suyunov Dilmurod Xolmuradovich, Xabibullayeva Shirinxon Toxir qizi	
Xalqaro standartlar asosida moliyaviy instrumentlar hisobini va auditini takomillashtirish.....	902
Nuraliyev Behzod Baxtiyor o'g'li	
Внедрение и адаптация исламского банкинга в экономике узбекистана	906
Б.Б.Ахмаджанов, М. С.Шукруллаева, Д.Р.Сафаева	
Kichik biznesning iqtisodiy o'sishni ta'minlashdagi ahamiyatini baholash uslubiyoti.....	911
Ermatov Akmaljon Adxamovich	
"Neyromarketing" asosida o'zbekiston turizm brendi tahlili	916
Narziqulov Elbek Farxod o'g'li	
Xalqaro bozorlarda zamonaviy marketing vositalaridan foydalanish	922
Meliqulov Abduhalil Norinovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar va ularning bank aktivlariga ta'siri.....	929
Saidov Bobir Jiyanboy o'g'li, Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich	
Сущность и причины международных денежных переводов	936
Гимранова О. Б.	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda uzoq muddatli aktivlarning hisobi va auditini raqamli tvn texnologiyasi asosida takomillashtirish imkoniyatlari.....	941
Rizakulov Abdurauf Abdimutalibovich	
Biologik aktivlarning tushunchasi: iqtisodiy mazmuni va mohiyati.....	948
Ziyayev Dilshodjon Salimjonovich	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda iqtisodiy siyosatning roli: zamonaviy yondashuvlar.....	953
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	



Аналитический обзор: Развитие корпоративного управления в государственных корпорациях Узбекистана (2015–2025).....	958
Мамараджабов Фарход Бахтиярович	
O'zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish karidorlari	968
Nazriyev Umidjon Baxrillayevich	
Aylanma kapital bilan ishlashda samaradorlikni oshirish: korxona moliya siyosatini takomillashtirish yo'nalishlarida data science yondashuvlari	975
Khoshimov Doniyor, Kungratov Ilmurod Kuzibay o'g'li	
Davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda raqamli transformatsiyaning roli	982
Musurmonov Mehroj Murtaza o'g'li	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda tijorat banklariga moliyaviy resurslarni jalb qilish metodologiyasini takomillashtirish	988
Hamrayev Obid Akhatovich	
Tibbiy xizmatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish va uning samaradorlikka ta'siri (xorijiy tajriba).....	993
Usmonova Vasila Botirovna	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni boshqarish amaliyoti tahlili.....	997
Akramova Nargiza Nutfillayevna	



TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI BOSHQARISH AMALIYOTI TAHLILI

Akramova Nargiza Nutfillayevna

“Mikrokreditbank” ATB Buxoro viloyat
hududiy boshqarmasi Ijtimoiy kreditlar bo‘limi boshlig‘i
(ijtimoiy menejer). G-mail: akramovan129@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston bank tizimidagi muammoli kreditlarning miqdoriy dinamikasi, ularning umumiy kredit portfelidagi ulushi va ushbu jarayonlarni boshqarish bo‘yicha qo‘llanilayotgan usullar tahlil qilinadi. 2021–2025-yillar davomida muammoli kreditlar ulushining o‘zgarishi statistik ma‘lumotlar asosida yoritilib, ularning oshishi va pasayishiga ta‘sir etuvchi omillar aniqlangan. Shuningdek, tijorat banklari tomonidan qo‘llanilayotgan asosiy boshqaruv yondashuvlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: muammoli kreditlar, tijorat banklari, kredit portfeli, risklarni boshqarish, restrukturizatsiya, garov.

Abstract: This article analyzes the quantitative dynamics of non-performing loans in Uzbekistan's banking system, their share in the total loan portfolio, and the methods used to manage these processes. Based on statistical data from 2021 to 2025, changes in the share of non-performing loans are examined, and the factors influencing their increase or decrease are identified. The main management approaches employed by commercial banks are also outlined.

Key words: non-performing loans, commercial banks, loan portfolio, risk management, restructuring, collateral.

Аннотация: В данной статье рассматривается количественная динамика проблемных кредитов в банковской системе Узбекистана, их доля в общем кредитном портфеле, а также методы управления данными процессами. На основе статистических данных за 2021–2025 годы проанализированы изменения доли проблемных кредитов, выявлены факторы, влияющие на их рост и снижение. Также раскрыты основные подходы управления, применяемые коммерческими банками.

Ключевые слова: проблемные кредиты, коммерческие банки, кредитный портфель, управление рисками, реструктуризация, залог.

KIRISH

Tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi va ular tomonidan real sektor korxonalarini kreditlash imkoniyatlari, asosan, resurslarning mavjudligiga bog‘liq. Bu resurslar hajmi bankning kredit faoliyatiga ta‘sir etuvchi tashqi va ichki omillarga qarab belgilanadi.

Tashqi omillarga umumiy makroiqtisodiy vaziyat va xalqaro banklararo kreditlar bozorining holati kiradi. Ichki omillar esa, asosan, kredit portfellarining sifati bilan aniqlanadi, ya‘ni muddati o‘tgan va muammoli kreditlarning ulushi muhim rol o‘ynaydi.

2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekiston bank tizimida muammoli kreditlar bilan bog‘liq vaziyat yomonlashdi. Bu holat, birinchi navbatda, iqtisodiy faollikning sekinlashuvi, ayrim sohalarda to‘lovga qobiliyatsizlik holatlarining ko‘payishi hamda kredit portfellarining sifati ustidan yetarli darajada monitoring yuritilmaganligi bilan izohlanadi. Xususan, 2024-yilda tijorat banklarining muammoli kreditlarning jami kreditlari hajmidagi ulushi 3,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib, 0,5 foizli punktga o‘sgan [8].

Ushbu vaziyat banklar tomonidan kredit siyosatini qayta ko‘rib chiqish, kreditga layoqatlilik mezonlarini kuchaytirish, qarz oluvchilarning moliyaviy monitoringini muntazam olib borish zaruratini yuzaga chiqarmoqda. Shu bilan birga, bank tizimida muammoli kreditlar bilan ishlovchi bo‘linmalar faoliyatining samaradorligini oshirish va kreditni qaytarishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb masalaga aylandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jon Meynard Keyns muammoli kreditlar darajasining yuqoriligi iqtisodiy inqirozga olib kelishi mumkin, chunki bunday holatda banklar kreditlashni cheklashga majbur bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida investitsiyalar



hajmining pasayishi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashuviga sabab bo'ladi deb ta'kidlaydi [1].

Iqtisodchi I. Shumpeter muammoli kreditlarning mavjudligi bank tizimiga bo'lgan ishonchni izdan chiqarishini ta'kidlaydi, bu esa ham investitsiya faolligining, ham kreditlash hajmining kamayishiga olib keladi va iqtisodiy taraqqiyot sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi [2].

T. Saveleva fikriga ko'ra, muammoli kreditlar qarzidor tomonidan asosiy qarz yoki foizlar belgilangan muddatda to'lanmagan holatlarda yuzaga keladi [3]. Bunday kreditlar belgilangan muddat ichida qaytarilmaydigan toifaga kiradi va bankning moliyaviy barqarorligiga tahdid tug'diradi.

I. Mikhailova esa muammoli kreditlarni qarzidor majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan va kreditni shartnomaga muvofiq tarzda qaytarmagan holatlar deb ta'riflaydi [4]. Bu toifaga nafaqat kechiktirilgan to'lovlar, balki qayta tuzilgan yoki muddati uzaytirilgan kreditlar ham kiradi.

N. Gorbunova ta'kidlashicha, muammoli kreditlar - bu asosiy qarz yoki foiz to'lovlari uzoq muddat davomida amalga oshirilmagan kredit majburiyatlaridir [5]. Bunday kreditlar bank aktivlari sifatining yomonlashuvi va kredit risklarining oshishiga olib keladi.

V. Denisenkoning fikricha, muammoli kreditlar - bu asosiy qarz yoki foizlar bo'yicha o'z vaqtida to'lovlar amalga oshirilmagan holatlar bo'lib, natijada ham qarzidorning, ham kredit tashkilotining moliyaviy holati yomonlashadi [6].

A. Kozlov muammoli kreditlarni o'z vaqtida qaytarilmagan va qarzidorlar o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan holatlar deb hisoblaydi. Bunday kreditlar bank risklarining oshishiga, likvidlikning pasayishiga va hatto butun moliyaviy tizim barqarorligiga tahdid tug'dirishi mumkin [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda muammoli kreditlarning rivojlanish dinamikasini o'rganish uchun tizimli, statistik va tahliliy yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tijorat banklarining yillik hisobotlari hamda xalqaro moliyaviy tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan ochiq statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Jumladan, 2021-2025-yillar oralig'idagi kreditlar hajmi, muammoli kreditlar miqdori va ularning umumiy kredit portfelidagi ulushi asosiy ko'rsatkichlar sifatida tanlandi. O'zbekiston bank tizimidagi muammoli kreditlar holati xalqaro tajribadagi ayrim davlatlar bilan solishtirilib, nisbiy holat baholandi. Bu orqali O'zbekistonning kredit sifati bo'yicha nisbatan qanday o'rinda turgani aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bank faoliyatining asosiy jarayonlaridan biri bu kreditlash hisoblanadi. Biroq qarz oluvchilarning moliyaviy ahvoli yomonlashuvi yoki ularning to'lovga qobiliyatsizligi natijasida muddatidan o'tgan qarzidorlik (ya'ni muammoli kreditlar) vujudga keladi. Ayni paytda bu ko'rsatkichning o'sishi bank tizimidagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi, chunki muammoli kreditlar ulushining ortishi banklarning likvidligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, kreditlash hajmining qisqarishiga, investitsiya jarayonlarining sekinlashishiga hamda iqtisodiyotda pul aylanishining sustlashishiga olib keladi.

Muammoli aktivlar ko'paygan sharoitda banklar ehtiyot chorasi sifatida riskli sohalarga kredit ajratishni cheklaydi, bu esa real sektor korxonalarining aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda muammolarni yuzaga keltiradi. Natijada, iqtisodiyotning o'sish sur'atlari pasayadi va ishsizlik darajasi ortadi. Shu bois muammoli kreditlarni oldini olish, erta aniqlash va samarali boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish banklar va makroiqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan muhim strategik vazifa sanaladi.

Quyidagi 1-jadvalda 2018-2022-yillar davomida ayrim mamlakatlarda muammoli kreditlar darajasining (foizda) yillik o'zgarishi aks ettirilgan. Ushbu ko'rsatkichlar bank tizimi barqarorligi va kredit portfelining sifati bo'yicha muhim indikator hisoblanadi. Jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar har bir davlatda moliyaviy sektor qanday tahdidlar va muammolar bilan yuzlashganini tahlil qilish imkonini beradi.

1-jadval. 2018-2022-yillarda muammoli kreditlarning jami kreditlari hajmidagi ulushi yuqori bo'lgan mamlakatlar (foizda) [9]


Davlat	2018	2019	2020	2021	2022
Qirg'iz Respublikasi	7,3	7,7	10,1	10,8	12,5
Kamerun	14,8	14,7	15,8	14,1	13,0
Markaziy Afrika Respublikasi	17,6	16,1	17,5	13,9	14,5
Gana	18,2	13,9	14,8	15,1	14,8
Kongo Respublikasi	22,5	27,5	21,0	16,9	16,8



Davlat	2018	2019	2020	2021	2022
Jazoir	12,7	14,8	16,4	19,6	20,3
Chad	31,1	26,0	27,7	26,1	27,7
Ukraina	54,4	50,5	43,5	31,7	38,1
San-Marino	50,7	58,9	61,1	59,0	53,1
Ekvatorial Gvineya	36,9	49,1	52,2	55,1	55,4

2018-2022-yillar davomida ayrim davlatlarda muammoli kreditlar ko'rsatkichida sezilarli farqlar kuzatildi. Masalan, Qirg'iz Respublikasida bu ko'rsatkich yil sayin oshib, 2018-yildagi 7,3 foizdan 2022-yilda 12,5 foizgacha yetdi. Bu holat bank sektorida kredit portfeli sifati pasayib borayotganini ko'rsatadi. Ukrainada esa muammoli kreditlar darajasi 2018-yilda 54,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda 31,7 foizgacha kamaygan, ammo 2022-yilda ushbu ko'rsatkich 38,1 foizga oshdi. Ushbu holat tashqi omillar va iqtisodiy beqarorlik ta'sirini anglatadi.

Kamerun va Gana singari mamlakatlarda muammoli kreditlar nisbatan barqaror bo'lib qolmoqda. Kamerunda 5 yil davomida bu ko'rsatkich 14,8 foizdan 13,0 foizgacha tushgan, bu esa banklar tomonidan risklarni boshqarish va qarzдорlikni tiklash strategiyalarining nisbatan samarali bo'lganini anglatadi. Kanada esa NPL darajasi kichik tebranishlar bilan 15 foiz atrofida saqlanib qoldi, bu esa moliyaviy barqarorlik mavjudligini, lekin muammolarni to'liq bartaraf etilmaganini ko'rsatadi.



1-rasm. 2021–2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlarning jami kreditlarga nisbatan ulushi (trln. so'm va foizda) [8]

Eng yuqori darajadagi muammoli kreditlar San-Marino va Ekvatorial Gvineyada qayd etilgan bo'lib, 2020-2022-yillarda mos ravishda 61,1 foiz va 55,4foiz darajasiga yetgan. Bunday yuqori ko'rsatkichlar bank tizimining likvidlikka va ishonchlikka bo'lgan xavflarini oshiradi, iqtisodiyotga investitsiyalar oqimini sekinlashtiradi va umuman moliyaviy tizim barqarorligiga tahdid soladi.

Mamlakatimiz amaliyotida tijorat banklari muammoli kreditlari hajmi yuqorida keltirilgan mamlakatlarga nisbatan past darajada ekani qayd etish lozim. Quyidagi 1-rasmda O'zbekiston bank tizimida muammoli kreditlarning jami kreditlar tarkibidagi ulushi yillar kesimida aks ettirilgan.

2021–2025-yillar davomida O'zbekiston tijorat banklari kredit portfelining hajmi izchil o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Xususan, 2021-yilda jami kreditlar hajmi 276,9 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 533,1 trln. so'mga yetdi. Bu holat bank tizimi orqali iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish hajmining ortib borayotganini, shuningdek, kreditlash faoliyati kengayib borayotganini anglatadi.

Mazkur davrda muammoli kreditlar hajmi ham keskin o'zgarishlarga uchragan. 2021-yilda bu ko'rsatkich 5,8 trln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 16,9 trln. so'mga ko'tarilgan. Bu esa kreditlar bo'yicha to'lov



intizomining pasayishi, iqtisodiy muhitdagi beqarorlik, pandemiya keyingi moliyaviy bosimlar yoki kredit siyosatidagi yumshashlar bilan izohlanishi mumkin. Keyingi yillarda muammoli kreditlar ulushi nisbatan pasaygan bo'lsa-da, 2025-yilda u yana 4,0 foizgacha oshgan. Bu holat banklar tomonidan risklarni boshqarish choralarini ko'rilganini ko'rsatadi.

2023–2024-yillarda muammoli kreditlar ulushining pasayishi (3,6 foiz va 3,5 foiz) muammoli kreditlarni qayta tuzish, monitoring mexanizmlarining kuchaytirilishi va qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini tiklashga qaratilgan choralar samarasini aks ettiradi. Shunga qaramay, 2025-yilda ushbu ko'rsatkichning 4,0 foizgacha oshishi bank tizimidagi kredit sifati ustidan doimiy nazorat va takomillashgan risk baholash yondashuvlariga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston bank tizimidagi muammoli kreditlar ulushi xalqaro miqyosdagi ayrim davlatlarnikiga nisbatan ancha past darajada saqlanmoqda. Bu esa moliyaviy intizomning mustahkamligi, Markaziy bank tomonidan belgilangan prudensial talablarning samarali tatbiq qilinayotgani va banklar tomonidan amalga oshirilayotgan monitoring jarayonlarining natijadorligini ifodalaydi. Kelgusida muammoli kreditlar darajasini barqaror past ko'rsatkichda ushlab turish uchun tizimli tahlil, oldindan ogohlantirish mexanizmlarini kuchaytirish va kredit siyosatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari amaliyotida muammoli kreditlar bilan ishlashda bir qator usullardan foydalaniladi. Mazkur mexanizmlardan foydalanishning asosiy maqsadi kreditor (bank) va qarz oluvchi o'rtasida mavjud bo'lgan shartnoma doirasidagi majburiyatlarni huquqiy asosda qayta ko'rib chiqish, ularni o'zgartirish yoki bekor qilish, shuningdek, tomonlar o'rtasida yangi shart-sharoitlar va majburiyatlar asosida huquqiy munosabatlar shakllantirish orqali ilgari mavjud bo'lgan kredit munosabatlarini huquqiy jihatdan bartaraf etishdan iborat. Bu yondashuv kredit risklarini minimallashtirish, bank aktivlarining sifati va qaytaruvchanligini ta'minlash, shuningdek, qarz oluvchining moliyaviy barqarorligini tiklash orqali kredit munosabatlarining uzluksizligini saqlab qolishga xizmat qiladi. Tijorat banklari amaliyotida muammoli kreditlar hajmini kamaytirishda bir qator modellar foydalaniladi va ularning asosiylari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Muammoli kreditlar bilan ishlash usullari

№	Usul nomi	Tavsifi	Afzalliklari	Qo'llaniladigan holatlar
1	Hamkorlik usuli	Tomonlar o'zaro teng asosda murosaga kelish orqali kreditni qaytarish rejalarini kelishadi.	Mijoz bilan yaxshi munosabat saqlanadi, mijozni yo'qotmaslik imkoni bo'ladi.	Qarz oluvchida kreditni qoplash istagi bor, lekin vaqtincha qiyinchilik mavjud.
2	Kreditni restrukturizatsiya qilish	Kredit shartlari va to'lov muddatlarini o'zgartirish orqali kreditdan foydalanish muddati uzaytiriladi.	Kredit qaytishi ta'minlanadi, bank mijozni saqlab qoladi.	Qarz oluvchi moliyaviy jihatdan biroz zaif, ammo barqaror.
3	Kredit munosabatlarini tugatish	Sud yoki sudgacha tartibda kreditni to'liq yopish yoki garovga undiruv qo'yish.	Qarz bank foydasiga undirib olinadi.	Qarz oluvchi majburiyatlarni bajarmaydi.
4	Kredit ta'minoti orqali so'ndirish	Garov, kafillik yoki bank kafolati orqali kreditni qaytarish kafolatlanadi.	Kredit xavfi kamayadi.	Kredit rasmiylashtirish bosqichida xavfni kamaytirish uchun qo'llaniladi.

Hamkorlik usuli - bu muammoli kreditlarni boshqarishda kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni o'zaro ishonch, tenglik va kelishuv tamoyillari asosida hal qilishga qaratilgan strategik yondashuvdir. Ushbu metod kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi konstruktiv hamkorlikni ta'minlash, muzokaralar orqali qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish yoki boshqa maqbul yechimlarni ishlab chiqishni nazarda tutadi. Banklar bu usulni qo'llagan holda, qarz oluvchining moliyaviy barqarorligini tiklashga ko'maklashadi, shuningdek, kreditni to'liq qaytarish imkoniyatini saqlab qolgan holda mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikni davom ettirishga intiladi. Amaliyotda bu yondashuv kredit xavflarini kamaytirish, mijozlar bilan barqaror aloqalarni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Kreditni restrukturizatsiya qilish – bu bank va qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasining ayrim shartlarini, xususan, to'lov grafigi, foiz stavkalari, ta'minot shakllari va muddati kabi jihatlarni qayta ko'rib chiqishga qaratilgan moliyaviy va huquqiy mexanizm bo'lib, u kredit munosabatlarini davom ettirish imkonini beradi. Ushbu yondashuv qarz oluvchining vaqtincha yuzaga kelgan moliyaviy qiyinchiliklarini hisobga olgan holda, uning majburiyatlarini vijdonan bajarishini qo'llab-quvvatlash hamda kredit portfelining sifati saqlab qolishga xizmat qiladi. Restrukturizatsiya orqali banklar aktivlarining balansdagi qiymatini pasaytirmasdan, qarzdorlikning qaytarilishi uchun huquqiy asos yaratadi.



Qarz oluvchining moliyaviy ahvoli kreditni restrukturizatsiya qilishga yo'l qo'ymasa, bank tomonidan kredit munosabatlarini bekor qilish va qarzni undirishga qaratilgan keskin choralar qo'llaniladi. Bunday usullar quyidagilarni o'z ichiga oladi: sud orqali garov obyekti yoki boshqa aktivlarga undiruv qo'yish, qarzdorlikni sud tartibida undirish, sudgacha tartibda garovga bo'lgan huquqni amalga oshirish va kredit shartnomasini muddatidan oldin bekor qilib, to'liq hisob-kitob qilish. Ushbu usullar shartli ravishda sudgacha va sud tartibidagi yechimlarga bo'linadi.

Sud orqali undiruv faqat qarzdor o'z majburiyatlarini ongli ravishda bajarmasligi aniqlanganda qo'llaniladi. Bu holatda bank qonunchilikka asoslangan tarzda qarzdorlikni majburiy undirish mexanizmlarini ishga soladi. Aksincha, sudgacha usullarga garovni sudsiz realizatsiya qilish (ya'ni fuqarolik qonunchiligi asosida) va qarzni qarz oluvchining roziligi bilan to'liq yopish kiradi.

Kreditni qaytarish kafolatlari - bu kreditorning qarz oluvchining majburiyatlarini bajarmasligi holatida moliyaviy xavflarni minimallashtirish uchun foydalanadigan asosiy ta'minot vositalaridir. Ular quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Garov – qarzdor tomonidan taqdim etilgan mol-mulk yoki mulkiy huquqlar asosida rasmiylashtiriladi va kredit qaytarilmagan taqdirda bank ushbu aktivlar hisobidan qarzni undirib oladi.

Kafillik – uchinchi shaxs (kafil) bank oldida qarzdorning majburiyatlarini bajarish uchun javobgarlikni zimmasiga oladi. Bu holatda qarzdor va kafil bank oldida javobgar bo'ladi.

Bank kafolati – bank yoki moliyaviy tashkilot tomonidan beriladigan bir tomonlama majburiyat bo'lib, kreditor yozma talab bilan murojaat qilganida, kafolat puli to'lanadi. Bu kafolat qarzdorning amaldagi qarzdorligidan qat'i nazar, kuchga ega bo'ladi va xizmat uchun qarz oluvchi komissiya to'laydi.

Ushbu ta'minot mexanizmlari kredit xavfini kamaytirishga, kredit portfelining xavfsizligini ta'minlashga hamda qarzdorlikni qaytarishni huquqiy jihatdan kafolatlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Banklar tomonidan qo'llanilayotgan muammoli kreditlarni hal qilish usullari — xususan, hamkorlik asosidagi yondashuv, kreditni restrukturizatsiya qilish va huquqiy choralarni qo'llash kabi mexanizmlar ushbu muammoning oldini olish va oqibatlarini yumshatishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, xalqaro tajribadan kelib chiqilsa, O'zbekiston ko'plab rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan muammoli kreditlar ulushi past bo'lgan mamlakat sifatida ajralib turadi. Bu esa bank tizimi barqarorligining nisbatan yuqoriligini ko'rsatadi. Biroq makroiqtisodiy beqarorlik, tashqi moliyaviy sharoitlar va ichki to'lov intizomi bilan bog'liq xavflar doimiy monitoring va tahlilni talab etadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, O'zbekiston bank tizimidagi muammoli kreditlar darajasi so'nggi yillarda o'zgaruvchan bo'lib, umumiy kredit portfeliga nisbatan nisbatan past darajada saqlanib kelmoqda. Bu holat banklar tomonidan risklarni boshqarish, kreditlarni monitoring qilish va qarz oluvchilar bilan hamkorlikda ishlash bo'yicha samarali mexanizmlar ishlab chiqilganini ko'rsatadi. Biroq 2022-yilda kuzatilgan muammoli kreditlar ulushining keskin oshishi ushbu sohada doimiy ehtiyot choralarni kuchaytirish va kredit siyosatini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kelgusida tijorat banklarining muammoli kreditlar ulushini yanada pasaytirish, kreditlash sifatini oshirish, moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb etish orqali risklarni oldindan aniqlash tizimini rivojlantirish bank sektorining barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi omillar bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Keynes J.M. The General Theory of Employment, Interest and Money. – London: Macmillan, 1936.
2. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge: Harvard University Press, 1934.
3. Сэвелева Т.Н. Проблемные кредиты: понятие, классификация и пути решения // Вестник экономики и права. – 2017. – № 9. – С. 132–136.
4. Михайлова И.В. Управление проблемными кредитами в коммерческом банке // Финансовая экономика. – 2019. – № 1. – С. 78–81.
5. Горбунова Н.В. Воздействие проблемных кредитов на устойчивость банковской системы // Деньги и кредит. – 2020. – № 6. – С. 49–52.
6. Денисенко В.С. Финансовая устойчивость банков и влияние проблемных кредитов // Банковское дело. – 2017. – № 4. – С. 33–36.
7. Козлов А.А. Проблемные активы коммерческих банков: причины возникновения и способы минимизации рисков // Вопросы экономики и права. – 2018. – № 5. – С. 85–88.
8. <https://cbu.uz> – The Central Bank of the Republic of Uzbekistan
9. <https://worldbank.org> – Jahon bankining rasmiy veb-sayti



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>